

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 6
ISSUE 1 2026

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

6-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
ТОМ-6, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY
VOLUME-6, ISSUE-1



ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2026-1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

MIRZAYEV IBODULLA
f.f.d., professor (O'zbekiston)
МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
MIRZAYEV IBODULLA
DSc, professor (Uzbekistan)

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ
ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:**

JABBOROV NURBOY
f.f.d., professor (O'zbekiston)
ЖАББОРОВ НУРБОЙ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
JABBOROV NURBOY
DSc, professor (Uzbekistan)

TAHRIRIY HAY'ATI:

Muhiddinov Muslihiddin

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dilorom Salohiy

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Sodiqov Qosimjon

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Binnatova Almaz Ulvi

f.f.d., professor (Ozarbayjon)

To'xliyev Boqijon

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Shodmonov Nafas

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Asadov Maqsud

f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Yo'ldoshev Qozoqboy

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Jo'raqulov Uzoq

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Funda Toprak

f.f.d., professor (Turkiya)

Nabiulina Guzal

f.f.d., professor (Tatariston)

Yusupova Dilnavoz

DSc, professor (O'zbekiston)

Sirojiddin Xo'jaqulov

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Rahim Ibrohim

f.f.d., professor (Afg'oniston)

Turobov Abdurahim

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Muhitdinova Badia

DSc, professor (O'zbekiston)

Muhammadiyev Ahadjon

DSc, dotsent (O'zbekiston)

Suvonova Jumagul

f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Mirzayev Rahmatilla

y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)

Abdullayeva Albina

f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Nurova Gulchehra

f.f.n., dotsent (O'zbekiston)

Sultanov Tulkin

PhD, dotsent (O'zbekiston)

Ubaydullayev Normuhammad

PhD, dotsent (O'zbekiston)

Ruzmanova Roxila

dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)

Narziyeva Ma'mura

PhD, kotib (O'zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI

Xalmuradov Rustam

t.f.d., professor (O'zbekiston)

Sirojiddinov Shuhrat

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Eshqobil Shukur

*O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi, shoir (O'zbekiston)*

Rixsiyeva Gulchehra

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Benedek Peri

f.f.d., professor (Vengriya)

Olimov Karomatillo

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dadaboyev Hamidulla

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Shomusarov Shorustam

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Dyu Rye Andre

f.f.d., professor (Fransiya)

Hamroyev Juma

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Aftondil Erkinov

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Hasanov Shavkat

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Umurova Go'zal

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Xalliyeva Gulnoz

f.f.d., professor (O'zbekiston)

Alim Labib

f.f.d., professor (Afg'oniston)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Мухиддинов Муслихиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилором Салохий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Содиков Косимжон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Биннатова Алмаз Улви
д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Тухлиев Бокижон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шодмонов Нафас
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Асадов Максуд
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Юлдашев Казакбай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Журакулов Узок
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Фунда Топрак
д.ф.н., профессор (Турция)
Набиуллина Гузаль
д.ф.н., профессор (Татаристан)
Юсупова Дилнавоз
DSc, профессор (Узбекистан)
Сирожиддин Хужакулов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Рахим Иброхим
д.ф.н., профессор (Афганистан)
Туробов Абдурахим
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухитдинова Бадиа
DSc, профессор (Узбекистан)
Мухаммадиев Ахаджон
DSc, доцент (Узбекистан)
Сувонова Жумагул
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Мирзаев Рахматилла
к.ю.н., доцент (Узбекистан)
Абдуллаева Альбина
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурова Гулчехра
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Султанов Тулкин
PhD, доцент (Узбекистан)
Убайдуллаев Нормухаммад
PhD, доцент (Узбекистан)
Рузманова Рохила
доц., отв. секретарь (Узбекистан)
Нарзиева Мамура
PhD, секретарь (Узбекистан)

НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Халмурадов Рустам
д.т.н., профессор (Узбекистан)
Сирожиддинов Шухрат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Эшқобил Шуккур
Заслуженный работник культуры Республики
Узбекистан, поэт (Узбекистан)
Рихсиева Гулчехра
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бенедек Пери
д.ф.н., профессор (Венгрия)
Олимов Кароматилло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шомусаров Шорустам
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дю Рье Андре
д.ф.н., профессор (Франция)
Хамроев Джума
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Афтондил Эркинов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Хасанов Шавкат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Умурова Гузал
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Халлиева Гулноз
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Алим Лабиб
д.ф.н., профессор (Афганистан)

EDITORIAL BOARD:

Mukhiddinov Muslikhiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dilorom Salokhiy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Sodikov Kosimjon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Binnatova Almaz Ulvi
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Tukhliev Bokijon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shodmonov Nafas
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Asadov Makhsud
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Yuldoshev Kozokboy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Jurakulov Uzok
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Funda Toprak
DSc, prof. (Türkiye)

Nabiulina Guzal
DSc., prof. (Tatarstan)

Yusupova Dilnavoz
DSc, prof. (Uzbekistan)

Sirojiddin Khujakulov
DSc, prof. (Uzbekistan)

Rakhim Ibrokhim
DSc, prof. (Afghanistan)

Turobov Abdurakhim
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhitdinova Badia
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhammadiyev Akhadjon
DSc, assoc. prof. (Uzbekistan)

Suvonova Jumagul
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Mirzayev Rahmatilla
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Abdullayeva Albina
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Nurova Gulchekhra
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Sultanov Tulkin
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ubaydullayev Normuhammad
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ruzmanova Rokhila
Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)

Narziyeva Ma'mura
PhD, Secretary (Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

Khalmuradov Rustam
Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)

Sirojiddinov Shukhrat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Eshqobil Shukur
Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)

Rikhsieva Gulchekhra
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Benedek Peri
Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)

Olimov Karomatullo
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dadaboev Khamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shomusarov Shorustam
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dyu Rye Andre
Doc. of philol. scien., prof. (France)

Khamroev Juma
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Aftondil Erkinov
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khasanov Shavkat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Umurova Guzal
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khallieva Gulnoz
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Alim Labib
Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI

1. Афтондил ЭРКИНОВ АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЭРОН ҚЎЛЁЗМАЛАРИ.....	7
2. Sherxon QORAYEV O'ZBEK XONLIKLARIDA NAVOIYXONLIK TENDENSIYALARI (XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON FERUZNING "NAVOIYXONLIK" KECHALARI MISOLIDA)...	15
3. Nigora TO'XTAQULOVA ALISHER NAVOIY HIKOYALARINING FOLKLOR BILAN BOG'LANISHI ("MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASI MISOLIDA).....	21
4. Jumagul SUVONOVA ALISHER NAVOIY VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA TARBIYAVIY G'OYALAR UZVIYLIGI AN'ANA VA ZAMON TALQINIDA.....	30
5. Zulfiya RASULOVA UZBEKSKO-TADJIKSKIE LITERATURNYE SVYAZI XX VEKA.....	37
6. Sitara QODIRQULOVA ALISHER NAVOIY LIRIKASI TARJIMONI ALEKSANDR NAUMOV HAQIDA.....	43

NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI

1. Shavkat YANGIBOYEV "ILK DEVON" SHE'RLARINING ALISHER NAVOIYNING BOSHQA DEVONLARIGA JORIYLANISHI.....	48
2. Shaxnoza KAXXAROVA ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER" MANOQIBIDA KOMIL INSON TALQINI.....	58
3. Sherxon QORAYEV ALISHER NAVOIY "OLIIY MAJLISLARI" VA NADIMLARI.....	70
4. Umida OTAYAROVA "XAMSA"LARNING SO'NGGI DOSTONLARIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI.....	79
5. Dilfuza RAXMATOVA NAVOIY G'AZALLARIDA SOLETSIZMNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	85
6. Dilafro'z TAMIKAYEVA ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI VA UNI TADQIQ ETISH MASALALARI.....	92

NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

1. Umida UBAYDULLAYEVA TILSHUNOSLIKDA LISONIY MANZARA KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....	99
2. Rustamjon JABBOROV BOBURIYLARNING TURKIY TIL VA ADABIYOT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI.....	105

TAQRIZ, TAHLIL VA TARJIMA

1. Iroda ISHONXANOVA O'ZBEK ADABIYOTI YO'LBOSHCHISIGA BAG'ISHLANGAN NASHR.....	112
2. Roxila RUZMANOVA TURK DUNYOSINING YIRIK TADQIQOTCHISI.....	122




NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

Umida UBAYDULLAYEVA

Abdulla Qodiriy nomidagi JDPU doktoranti,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: umidaubaydullayeva49@gmail.com

TILSHUNOSLIKDA LISONIY MANZARA KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI

For citation: Ubaydullayeva Umida. THE FORMATION OF THE CONCEPT OF THE LINGUISTIC WORLDVIEW AND ITS SCIENTIFIC INTERPRETATIONS IN LINGUISTICS. Alisher Navoi. 2026, vol. 6, issue 1.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19412144>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada olamning lisoniy manzarasi konsepsiyasining shakllanishi, nazariy asoslari hamda zamonaviy tilshunoslikdagi talqinlari kompleks va tizimli tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu konsepsiyaning shakllanish tarixiga nazar tashlanib, uning falsafiy hamda lingvistik ildizlari nemis klassik til falsafasi an'analari bilan bog'liqligi ko'rsatib beriladi. Xususan, til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni talqin etishda nemis til falsafasi vakillarining qarashlari olamning lisoniy manzarasi nazariyasining g'oyaviy asoslaridan biri sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada XX asr tilshunosligida keng rivojlangan lingvistik nisbiylik nazariyasi doirasida tilning inson tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Bu jarayonda til birliklari orqali voqelikni idrok etish va kategoriyalash jarayoni o'rganilib, tilning konseptual tizim sifatidagi xususiyatlari ochib beriladi. Strukturalizm bosqichida til tizimining ichki tashkil topishi, semantik munosabatlar va kategoriyalar orqali olam tasviri qanday ifodalanishi masalalari ham alohida ko'rib chiqiladi. Maqolada antropotsentrik paradigma doirasida tilni inson omili bilan bog'liq holda o'rganish tendensiyasi ham tahlil qilinadi. Bu yondashuv asosida til insonning bilish faoliyati, mental modeli va madaniy tajribasi bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin etiladi. Shu nuqtai nazardan, kognitiv tilshunoslik hamda lingvokulturologiya doirasida olamning lisoniy manzarasi konsepsiyasining rivojlanishi, uning konseptual strukturalari, metaforik modellar hamda madaniy kodlar bilan aloqador jihatlari keng yoritiladi. Tadqiqot tarixiy-tipologik, qiyosiy, diskursiv hamda interpretativ tahlil metodlari asosida olib borildi. Ushbu metodlar yordamida turli ilmiy maktablar va nazariy yo'nalishlarda olamning lisoniy manzarasi konsepsiyasining talqinlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Natijada lisoniy manzara til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalarni aks ettiruvchi integrativ model sifatida namoyon bo'lishi asoslandi. Shuningdek, uning ko'p qatlamli, dinamik va madaniy jihatdan shartlangan hodisa ekanligi ilmiy jihatdan izohlandi.

Kalit so'zlar: lisoniy manzara, linguistic worldview, konseptual tizim, milliy mentalitet, lingvokulturologiya, kognitiv paradigma, semantik model.

Умида УБАЙДУЛЛАЕВА

Докторант Джизакского государственного
педагогического университета имени Абдуллы Кадырия,
Доктор философии (PhD)
E-mail: umidaubaydullayeva49@gmail.com

ФОРМИРОВАНИЕ КОНЦЕПЦИИ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЫ МИРА И ЕЁ НАУЧНЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ В ЛИНГВИСТИКЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье комплексно анализируются история формирования, теоретические источники и современные интерпретации концепции языковой картины мира. В исследовании рассматриваются философские и лингвистические предпосылки становления данной концепции, берущие начало в традициях немецкой классической философии языка. Особое внимание уделяется взглядам представителей немецкой философии языка на взаимосвязь языка, мышления и культуры, которые послужили идейной основой теории языковой картины мира. Кроме того, в статье рассматривается развитие данной концепции в рамках теории лингвистической относительности, широко распространённой в лингвистике XX века. Анализируется роль языка в формировании человеческого мышления и мировосприятия, а также процессы категоризации и концептуализации действительности посредством языковых средств. Отдельно освещаются вопросы отражения картины мира через внутреннюю организацию языковой системы, семантические отношения и категории, что характерно для структурного этапа развития лингвистики. Значительное внимание уделяется антропоцентрической парадигме, в рамках которой язык рассматривается в тесной связи с человеческим фактором, познавательной деятельностью и культурным опытом. В этом контексте анализируется развитие концепции языковой картины мира в когнитивной лингвистике и лингвокультурологии, а также её связь с концептуальными структурами, метафорическими моделями и культурными кодами.

Исследование проведено с использованием историко-типологического, сравнительного, дискурсивного и интерпретативного методов анализа. На основе полученных результатов обосновывается, что языковая картина мира представляет собой многослойное и динамичное явление, выступающее интегративной моделью взаимодействия языка, мышления и культуры.

Ключевые слова: языковая картина мира, linguistic worldview, концептуальная система, национальный менталитет, лингвокультурология, когнитивная парадигма, семантическая модель.

Umida UBAYDULLAYEVA

PhD Candidate at Abdulla Qodiriy Jizzakh State Pedagogical University,
Doctor of Philosophy (PhD)
umidaubaydullayeva49@gmail.com

THE FORMATION OF THE CONCEPT OF THE LINGUISTIC WORLDVIEW AND ITS SCIENTIFIC INTERPRETATIONS IN LINGUISTICS

ANNOTATION

This article provides a comprehensive analysis of the formation, theoretical foundations, and modern interpretations of the concept of the linguistic worldview (linguistic picture of the world). The study examines the historical development of this concept and demonstrates that its philosophical and linguistic roots originate from the traditions of German classical philosophy of language. Particular attention is given to the ideas of representatives of German linguistic philosophy regarding the interrelation between language, thought, and culture, which became one of the ideological foundations of the theory of the linguistic worldview. The article also discusses the development of

this concept within the framework of the theory of linguistic relativity, which gained significant influence in twentieth-century linguistics. In this context, the role of language in shaping human cognition and worldview is analyzed, as well as the processes of categorization and conceptualization of reality through linguistic units. Special attention is paid to the structuralist stage of linguistic research, where the internal organization of language systems, semantic relations, and categories are considered as mechanisms through which the image of the world is reflected in language. Furthermore, the paper examines the anthropocentric paradigm, within which language is studied in close connection with the human factor, cognitive activity, and cultural experience. From this perspective, the development of the concept of the linguistic worldview in cognitive linguistics and linguoculturology is analyzed, with particular emphasis on its conceptual structures, metaphorical models, and links with cultural codes.

The research is conducted using historical-typological, comparative, discursive, and interpretative methods of analysis. The results demonstrate that the linguistic worldview can be understood as a multilayered and dynamic phenomenon representing an integrative model that reflects the interaction between language, thought, and culture.

Keywords: linguistic worldview, conceptual system, national mentality, cognitive linguistics, linguoculturology, semantic structure, cultural code.

Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik paradigma ustuvorlik kasb etishi bilan tilni inson ongidan ajratib o'rganish mumkin emasligi ayon bo'ldi. Til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki borliqni idrok etish, kategoriyalash va konseptuallashtirish mexanizmidir. Shu nuqtayi nazardan "olamning lisoniy manzarasi" konsepsiyasi tilshunoslikning eng muhim nazariy kategoriyalaridan biriga aylandi. Lisoniy manzara muayyan til jamoasining borliq haqidagi bilimlari, qadriyatlar va mental stereotiplari til birliklari tizimida mujassamlashgan model sifatida talqin qilinadi. U obyektiv reallikning bevosita nusxasi emas, balki madaniy-tarixiy tajriba asosida shakllangan konstruksiyadir. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikda olamning lisoniy manzarasi inson ongida shakllanadigan konseptual bilimlar tizimi bilan chambarchas bog'liq holda talqin qilinadi. Kognitiv paradigma vakillarining fikricha, til nafaqat kommunikativ vosita, balki inson tafakkurining muhim modeli hamdir. Shu sababli til birliklari orqali ifodalanadigan ma'nolar insonning borliq haqidagi konseptual bilimlarini aks ettiradi.

Kognitiv yondashuvga ko'ra, inson ongida mavjud bilimlar **konseptlar tizimi** orqali tashkil etiladi. Konseptlar esa til birliklari yordamida namoyon bo'ladi. Demak, til konseptual bilimlarning tashqi ifodasi hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, olamning lisoniy manzarasi til orqali ifodalangan konseptual tizim sifatida talqin qilinadi. Kognitiv tilshunoslikda konsept tushunchasi inson tajribasi, madaniy qadriyatlar va bilish faoliyati bilan bog'liq murakkab semantik birlik sifatida qaraladi. Konseptlar inson ongida mavjud bilimlarni kategoriyalash, umumlashtirish va tizimlashtirish imkonini beradi. Olamning lisoniy manzarasi aynan shu konseptual tizim asosida shakllanadi. Shuningdek, kognitiv tilshunoslikda **prototip nazariyasi** ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko'ra, har bir semantik kategoriya markaziy va periferik elementlardan tashkil topadi. Masalan, "qush" kategoriyasining markaziy prototipi sifatida chumchuq yoki kaptar tasavvur qilinishi mumkin, ammo pingvin yoki tuyaqush bu kategoriyaning periferik vakillari hisoblanadi. Bu holat til orqali borliqni kategoriyalash jarayonining subyektiv va madaniy jihatlar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Shu tariqa, kognitiv yondashuv olamning lisoniy manzarasini inson ongidagi konseptual strukturalar tizimi sifatida talqin qiladi.

Lisoniy manzara konsepsiyasining shakllanishi bir necha bosqichlarga bo'linadi:

1. Falsafiy-lingvistik ildizlar. Lisoniy manzara g'oyasining nazariy ildizi nemis klassik til falsafasiga borib taqaladi. Wilhelm von Humboldt tilni xalqning ichki ruhi va tafakkur shakli sifatida talqin qilib, har bir til dunyoni o'ziga xos tarzda "kesib" tasniflashini ta'kidlagan. Uning fikricha, til – bu tayyor sistema emas, balki doimiy yaratuvchan faoliyatdir.

Humboldt konsepsiyasi keyinchalik lingvistik nisbiylik nazariyasiga asos bo'ldi. Edward Sapir va Benjamin Lee Whorf til strukturasi insonning dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslashga harakat qildilar. Ularning qarashlariga ko'ra, til grammatik kategoriyalari va leksik tizimi tafakkur

modelini shakllantiradi. Bu bosqichda lisoniy manzara hali termin sifatida shakllanmagan bo‘lsa-da, uning nazariy asosi yaratildi.

2. Strukturalizm va cheklangan talqin. Strukturalizm davrida til ichki tizim sifatida o‘rganildi. Semantik munosabatlar formal modelda tahlil qilindi, biroq til va tafakkur o‘rtasidagi munosabat ikkinchi darajaga tushib qoldi. Shunga qaramay, strukturalizm til tizimining paradigmatic va sintagmatik munosabatlarini aniqlab, keyinchalik konseptual tahlil uchun metodologik zamin yaratdi. Bu bosqich lisoniy manzaraning struktur asoslarini shakllantirishga xizmat qildi.

3. Antropotsentrik paradigma va konseptual burilish. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikda inson omiliga e‘tibor kuchaydi. Til inson ongining mahsuli va vositasi sifatida talqin qilina boshladi. Kognitiv tilshunoslik vakillari – George Lakoff va Ronald Langacker – til birliklarini konseptual strukturalar bilan bog‘lab tahlil qildilar. Ularning fikricha, til – bu konseptual tizimning tashqi ifodasi. Bu bosqichda lisoniy manzara konseptsiyasi ilmiy termin sifatida shakllanib, keng qo‘llanila boshlandi.

Olamning lisoniy manzarasi (OLM) haqidagi nazariy qarashlar jahon tilshunosligida XIX asrning oxirgi choragida boshlandi. OLM haqidagi dastlabki qarashlar Gumboltning asarlarida uchraydi. Gumbolt tilni “obyektiv borliq va tafakkur o‘rtasidagi oraliq olam” [Gumbolt 1984:78] deb ta‘riflaydi. Shuningdek, olim har bir til milliy tafakkurni ko‘rsatishini ta‘kidlaydi. Gumboltning qarashlari XX asrning 30-yillarida yanada rivojlantirildi. Xususan, Edvard Sepir dunyo manzarasi va olamning lisoniy manzarasi tushunchalarini farqlab korsatdi. “Inson tashqi dunyoda amalda tilning ko‘magisiz ham tirikchilik qilaverishi va til faqat tafakkur va aloqa-aralashuvning o‘ziga xos muammolarini hal qiladigan tasodifiy vosita degan qarashlar illyuziyadan boshqa narsa emas. Amalda esa “real dunyo” g‘ayrihuuriy ravishda u yoki bu ijtimoiy guruhning lisoniy odatlariga asoslanib quriladi” degan fikrlarni beradi Sepir [Sepir E. 1993:261].

O‘zbek tilshunosligida A.Sobirov OLM haqidagi dastlabki tadqiqotlarni olib borgan. A.Sobirovning “O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek tili leksik sathidagi til unsurlari va ularni makrotizim hisoblangan til va OLM lingvomaydonining tarkibiy qismi sifatida deb ta‘riflaydi [A.Sobirov 2004:268].

Dunyoning tilda aks etishi masalasi hamda milliy tilda olamning lisoniy in‘ikosi o‘zaro bog‘liqdir, har bir inson dunyoni eng avvalo, o‘z ona tili orqali qabul qiladi, har bir tilda o‘z lisoniy manzarasini shakllantiruvchi vositalarning o‘ziga xos, takrorlanmas jihatlari bor.

Kognitiv yondashuvga ko‘ra, lisoniy manzara quyidagi komponentlardan iborat:

- konseptlar tizimi;
- kategoriyalash mexanizmi;
- metaforik model;
- prototip strukturalar.

Olamning lisoniy manzarasini shakllantirishda metaforik tafakkur muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy kognitiv lingvistika metaforani faqat stilistik vosita sifatida emas, balki inson tafakkurining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida talqin qiladi. Konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, inson murakkab va abstrakt tushunchalarni aniq va konkret tajribalar orqali tushunadi. Masalan, vaqt, hayot, sevgi kabi abstrakt kategoriyalar ko‘pincha metaforik modellar orqali ifodalanadi.

Masalan:

- vaqt – pul
- hayot – yo‘l
- bilim – nur
- davlat – uy

Bu metaforik modellar insonning borliq haqidagi tasavvurlarini tizimlashtirishga xizmat qiladi. Metaforalar orqali shakllangan semantik modellar lisoniy manzaraning muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Chunki metaforik strukturalar insonning borliqni qanday idrok etishini aks ettiradi. Har bir madaniyatda o‘ziga xos metaforik modellar mavjud bo‘lib, ular milliy tafakkur xususiyatlarini ifodalaydi. Masalan, o‘zbek tilida “ko‘ngil”, “dil”, “yurak” kabi birliklar emotsional va ruhiy

holatlarni ifodalashda faol qo‘llanadi. Bu esa o‘zbek lisoniy manzarasida emotsional konseptlarning muhim o‘rin egallashini ko‘rsatadi. Lisoniy manzara milliy mentalitet bilan uzviy bog‘liq hodisa hisoblanadi. Milliy mentalitet – bu muayyan xalqning tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashi asosida shakllangan kollektiv tafakkur modelidir.

Til milliy mentalitetning asosiy ifoda vositalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli har bir til o‘ziga xos lisoniy manzarani shakllantiradi. Bu manzara muayyan xalqning borliqni qanday idrok etishini aks ettiradi. Masalan, o‘zbek tilida qarindoshlik terminlarining juda rivojlanganligi milliy madaniyatda oilaviy munosabatlarning muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Shuningdek, mehmondo‘stlik, hurmat, kattaga ehtirom kabi qadriyatlar ham til birliklari orqali namoyon bo‘ladi.

Frazeologik birliklar milliy lisoniy manzaraning eng yorqin ko‘rinishlaridan biridir. Masalan:

- ko‘ngli ochiq
- dili pok
- ko‘ngli keng

kabi birliklar o‘zbek madaniyatida insoniy fazilatlarining qadrlanishini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan qaraganda, lisoniy manzara milliy mentalitetni o‘rganishda muhim manba vazifasini bajaradi.

Zamonaviy tilshunoslikda lisoniy manzara faqat statik model sifatida emas, balki dinamik tizim sifatida ham talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar, madaniy o‘zgarishlar va global kommunikatsiya natijasida lisoniy manzara doimiy ravishda yangilanib boradi. Masalan, zamonaviy medial diskursda yangi metaforalar va terminlar paydo bo‘lishi lisoniy manzaraning yangilanishiga olib kelmoqda. Globallashuv jarayonlari natijasida tilga kirib kelayotgan yangi so‘zlar ham konseptual tizimni o‘zgartirmoqda.

Shuningdek, texnologik taraqqiyot ham yangi konseptual modellarni shakllantirmoqda. Masalan: virtual makon, raqamli jamiyat, sun‘iy intellekt kabi tushunchalar zamonaviy lisoniy manzaraning yangi komponentlariga aylanmoqda.

Lisoniy manzara konsepsiyasi qiyosiy tilshunoslikda ham muhim ahamiyatga ega. Turli tillarning lisoniy manzaralarini qiyosiy tahlil qilish orqali milliy tafakkur xususiyatlarini aniqlash mumkin. Masalan, vaqt konsepti turli tillarda turlicha ifodalanadi. Ba‘zi tillarda vaqt chiziqli modelda tasavvur qilinsa, boshqa tillarda u aylana yoki siklik modelda ifodalanadi. Shuningdek, rang kategoriyalarining ham turli tillarda turlicha tasniflanishi kuzatiladi. Bu holat til orqali borliqni kategoriyalash jarayonining madaniy va kognitiv omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, lisoniy manzara universallik va milliy o‘ziga xoslik elementlarining o‘zaro uyg‘unligidan iborat. Lingvokulturologiya doirasida lisoniy manzara madaniy bilimlarning til orqali kodlangan modeli sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuvga ko‘ra, til birliklari madaniy semantika tashuvchisi hisoblanadi.

Madaniy kodlar tilning turli qatlamlarida namoyon bo‘ladi:

- leksik birliklarda
- frazeologik birliklarda
- paremiologik birliklarda

Masalan, maqollar va matallar xalqning hayotiy tajribasi, qadriyatlari va axloqiy qarashlarini aks ettiradi. Shu sababli ular milliy lisoniy manzaraning muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Lingvokulturologik tadqiqotlar til birliklarida yashiringan madaniy ma’nolarni aniqlashga qaratilgan. Bu esa milliy madaniyatni chuqurroq tushunish imkonini beradi. Zamonaviy tadqiqotlarda lisoniy manzara diskurs bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda. Ijtimoiy diskurslar (siyosiy, diniy, medial) orqali kollektiv ongda yangi konseptual modellar shakllanadi. Bu jarayon globallashuv sharoitida milliy lisoniy manzaralarning transformatsiyasiga olib kelmoqda. Neologizmlar, kalkalar va yangi metaforalar konseptual tizimni yangilaydi.

Shunday qilib, lisoniy manzara konsepsiyasi tilshunoslikda falsafiy ildizlardan boshlab kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlargacha evolyutsion taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. U bugungi kunda tilni inson tafakkuri va madaniy tajribasi bilan birgalikda o‘rganishga imkon beruvchi integrativ nazariy model sifatida shakllangan. Bugungi kunda lisoniy manzara konsepsiyasi turli ilmiy yo‘nalishlarda faol o‘rganilmoqda. Jumladan:

- kognitiv tilshunoslik
- lingvokulturologiya
- psixolingvistika
- diskurs tahlili
- qiyosiy tilshunoslik

Zamonaviy tadqiqotlarda lisoniy manzara inson ongidagi bilimlarni modellashtirish, milliy mentalitetni aniqlash hamda madaniyatlararo kommunikatsiyani o‘rganishda muhim nazariy vosita sifatida qo‘llanilmoqda.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Kubryakova E.S. Yazyk i znanie. Moskva, 2004.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago, 1980.
3. Langacker R. Foundations of Cognitive Grammar. Stanford, 1987.
4. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. New York, 1921.
5. Sobirov A. “O‘zbek tilining leksik sathini sistemalar sistemasi tamoyili asosida tadqiq etish” dokt.diss. – T., 2004, 268 b.
6. Whorf B.L. Language, Thought, and Reality. Cambridge, 1956.

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

“ALISHER NAVOIY” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

“Alisher Navoiy” xalqaro jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Crossref.org tizimiga ham kiritiladi hamda har bir maqolaga DOI raqami beriladi.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 10-15 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- maqolalar o‘zbek, turk, tojik, rus, ingliz, fransuz tillarida qabul qilinadi;
- maqolaning tarkibiy tuzilishi IMRAD formatida rasmiylashtirilishi kerak;
- maqola Times News Roman shriftida, 12 kattalikda, 1 intervalda tayyorlanadi;
- havola(snokalar)lar katta qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi [Mo‘minov 2020: 25] shaklida keltiriladi;
- maqola tomonlari chap: 2 sm, o‘ng: 2 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqolalar plagiatga qarshi tekshiriladi;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:
Tel.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА “АЛИШЕР НАВОИЙ”

Международный журнал “Алишер Навоий” включен в список ВАК Республики Узбекистан. Он также будет включен в систему Crossref.org, и каждой статье будет присвоен номер DOI.

ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Объем статьи: около 10-15 страниц;
- статьи принимаются на узбекском, турецком, таджикском, русском, английском и французском языках;
- структура статьи должна быть оформлена в формате IMRAD;
- шрифт текста – Times New Roman; размер – 12 пунктов; межстрочный интервал – 1;
- сноски приводятся в квадратных скобках с указанием фамилии автора – года издания – страницы [Мўминов 2020: 25];
- параметры страницы: слева 2 см, справа 2 см, сверху и снизу по 2 см;
- статьи проверяются на плагиат;
- в одном номере журнала публикуется только 1 статья автора.

НАШИ КОНТАКТЫ:
Тел.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

“ALISHER NAVOIY” INTERNATIONAL JOURNAL INFORMATION LETTER

“Alisher Navoiy” International Journal is included in the list of HAC of the Republic of Uzbekistan. It will also be included in the Crossref.org system, and each article will be assigned a DOI number.

REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article should be presented in 10-15 pages;
- articles are accepted in Uzbek, Turkish, Tajik, Russian, English, French;
- the structure of the article should be in the IMRAD format.
- the article should be prepared in Times New Roman font, 12 sizes, 1 space;
- references are given in parentheses in the form of the author’s name – date of publication - page [Muminov 2020: 25];
- sides of the article left: 2 cm, right: 2 cm, top and bottom: 2 cm;
- articles will be checked against plagiarism.
- only 1 article by the author is published in 1 issue of the journal.

CONTACT ADDRESS:
Phone: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru